

O‘QIB TUSHUNISH MALAKASINI BAHOLASHNING BIR NECHA XIL USULLARI

Talibjanova Aziza Lutfullayevna

O‘zDJTU o‘qituvchisi

Talibjanovaaziza@gmail.com

Eshmurodova Sevinch G‘iyosiddin qizi

O‘zDJTU talabasi

sevincheshmurodova0924@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezis o‘qishning tushunish mahoratini oshirish uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun sarf-harflab o‘qish va tanlab o‘qish texnikalari, tanqidiy fikrlash va grafik tashkilotchilar kabi usullardan foydalanish uchun samarali bo‘ladi. Ushbu ko‘nikmalar talabalarning matnlarni o‘qib tushunish va ulardan foydalana olish uchun qo‘llab-quvvatlovchi vositadir. O‘qigan matni haqida ongostida tushuncha paydo bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: tushunish mahorati, sarf-harflab o‘qish, tanlab o‘qish, metodika, tanqidiy fikrlash, lug‘atlarning ortishi, grafik ko‘nikmalar, o‘qish strategiyalari.

Annotation: This thesis will be effective in using techniques such as exploratory reading and selective reading techniques, critical thinking, and graphic organizers to develop the basic skills needed to improve reading comprehension skills. These skills helps the student to read and understand the texts and to develop an understand of the text he has read.

Key words: comprehension skills, skimming, scanning, methodology, critical thinking, vocabulary growth, graphic skills, reading strategies.

O‘qish va tushunish bu matnni qayta ishlash va uning ma‘nosini tushunish o‘qiyotgan shaxs oldindan bilgan narsalar bilan bog‘lab anglay olish qobiliyatidir. So‘zlarning kontekstual ma‘nosini bilish, matn mazmuniy bloklarining o‘zaro bog‘lanishini anglash, matn tarkibidagi parchalar asosida xulosa chiqarish, matndagi asosiy fikrni aniqlash, berilgan savollarga matn asosida javob bera olish, matnda ishlatilgan badiiy san‘atlar yoki so‘z birikmalarini tanib, ajratib olish va ohangini aniqlash vaziyatning kayfiyatini(tasdiq, inkor, so‘roq qilish, buyruq berish) muallifning maqsadi, niyati va nuqtai nazarini aniqlash va muallif to‘g‘risida xulosalar chiqarish qobiliyatları o‘qilgan matnni samarali tushunish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalar hisoblnadi.

Matnning grafika yordamida ifodalangan mazmunini muloqot vazifasiga qarab qa‘bul qilish va qayta ishlab, mazmunan anglashga doir nutqiy faoliyat turi. Real hayotda biz turli tarzda o‘qiyimiz, o‘qish xususiyati bizning har bir alohida vaziyatda o‘qishdan

ko‘zlaydigan maqsadimizga bog‘liq. Bu o‘qib tushunishning quyidagi turlarini belgilaydi:

Analitik (tahliliy) o‘qish, o‘rganish uchun o‘qish, yuzaki o‘qish, izlanuvchi o‘qish, tanishish uchum o‘qish va h.k.

Matnni o‘qib tushunish jarayoni, o‘z navbatida, quyidagi jarayonlardan tashkil topadi:

-Pedagogik jarayon- biror bir shaxs tomonidan o‘zgatish, ko‘rsatishni taqazo qiladi.

-Psixologik jarayon- diqqatni jamlagan holda o‘qilayotgan narsaga qarash, tikilishni talab qiladi.

-jismoniy jarayon- boshqa harakatlarni to‘xtatgan holda ko‘zni faqat harf, bo‘g‘in yoki so‘zga qaratishni taqazo etadi.

-Fiziologik jarayon - o‘rganilayotgan harf yoki so‘zni takrorlay olishni talab qiladi, o‘qiy olish layoqatining mavjud yoki mayjud emasligini anglatadi.

O‘qib tushunish jarayonida matndagi turli chiziqlar majmuyini qa‘bul qilamiz, ular “grafema“ deb ataladi. U vizual kirish leksikonidagi mavjud so‘zlar bilan solishtiriladi. So‘z chizmadan iborat mohiyatiga aylanadi va idrok qilinadi. Ya‘ni mazkur ta‘svirga bog‘langan ma‘no faollashadi. Bir so‘ bilan aytganda, yozma matndagi so‘zni turli belgilar tizimi- grafemalar yig‘indisi sifatida qa‘bul qilamiz, va uni mazmunan parchasi sifatida idrok qila boshlaymiz.

Ba‘zi mutaxassis olimlar tomonidan o‘qshni tushunishning bir qancha ta‘riflari mavjud. Braunning fikriga ko‘ra, o‘qishni tushunish birinchi navbatda to‘g‘ri, samarali tushunish strategiyalarini va turli xil usullarini ishlab chiqish masalasini talab qiladi, Pirson Jonsonning fikricha esa o‘qishni tushunish bir jarayondir bunda yangilikni mavjud bilimga bog‘lash mumkin, Smitning fikriga ko‘ra esa o‘qishni ko‘proq pragmatik tarzda yozuvchi tomonidan vizual va vizual bo‘lmagan ma‘lumotlar orqali yetkazilgan xabarni tushunish sifatida belgilaydi. Shu kabi olimlarimiz o‘zining turli xil izlanishlarini olib borgan.

O‘qish mahorati: birinchidan, so‘z va ibora ichidagi yaxlit (sintetik) o‘qish texnikasi (butun so‘zlarda o‘qish) rivojlanishi mavjud. Keyinchalik so‘zlarning gapga intonatsion birikmasi usullari shakllantiriladi, o‘qish tezligi oshadi.O‘qilgan narsaning mazmunini takrorlash bilan o‘z-o‘zidan o‘qish asta-sekin kiritiladi.

O‘qishni tushunish: o‘qishning orfoepik va intonatsion normalari, so‘z va gaplar, matnni o‘qishning turli turlarini (tanlama, kirish, o‘rganish) o‘zlashtirish va ulardan muayyan nutq vazifasiga muvofiq foydalanish, ravon o‘qish malakasini shakllantirish bilan bir qatorda ongli o‘qish, o‘qilgan narsaning ma‘nosini tushunish, asosiy narsani umumlashtirish va ajratib ko‘rsatish qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha maqsadli ish olib boriladi.

O‘qib tushunish malakasini baholash turli metodlarni talab qiladi, chunki bu ko‘nikma o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini har tamonlama aniqlashga imkon beradi. Har bir usul maqsadga muvofiq va o‘quvchining bilim darajasiga moslashtirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdiraimov Shohruh “O‘qib tushunish malakasini baholashning psixofiziologik xususiyatlari” 987-b iyun 2021y.
2. Asilova G “O‘zbek tilida o‘qib tushunish malakalarini rivojlantirish“351-b 21-dekabr 2021y.
3. Ergashova, S., Yadgarova, L., Ziyodulloeva, M., Norova, F., & Yuldasheva, N. (2022). The principles of using computer technologies in the formation and development of students' language skills. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 13(Special Issue 6). <https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2116>
4. Isakulova , B. K. (2024). Role of leadership style in teaching process. *GOLDEN BRAIN*, 2(1), 615–619. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/6060>
5. Isakulova, B. K. (2023). Teaching a foreign language through didactic games to preschoolers. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 234–239. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3161>
6. Karimova Visola “Boshlang‘ich ta‘limda o‘qishni o‘rgatish texnikasi” 334-b 10-iyun 2022y.
7. Tuxtayevich, K. I. ., Ahmatovna, P. S. ., Turgunbayevna, M. N., Rasulovna, R. M. ., Qizi, T. F. R. ., & Qizi, Y. N. A. . (2024). Different Approaches to Enhance Critical Thinking in Digital Education. *SPAST Reports*, 1(7). <https://spast.org/ojspath/article/view/5086>
8. Yuldasheva , N. A. qizi, & Ziyadulloeva , M. S. qizi. (2024). Essence of developing learners’ communicative competence. *Golden Brain*, 2(1), 572–575. Retrieved from<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/6050>
9. Zaripova Sh. “Xorijiy tillarda o‘qishni tushunish nazariyalari“ Samarqand 2024y.